

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 502 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'рни.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot" da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili.....	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lim turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	62
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva , Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lim kreditining o'рни va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	
Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedra dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich , katta o'qituvchi	



Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach.....	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmiddin qizi, asisstent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna, PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna, PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna, Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li, mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li, tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhmadjon, PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlantirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna, i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li, mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li, mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li, dekan o'rinbosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich, dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich, magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni.....	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li, mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна, PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov, kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich, i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna, kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna, kafedra dotsenti	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .	236
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich, mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari.....	242
Berdiyev Akram O'ktamovich, mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi	253
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari	258
Botirov Erkinjon Xayitovich, kafedra dotsenti	



O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish	263
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	269
Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....	272
Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....	278
Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	284
Qurbonova Shaxrinnoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar	288
Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari	292
Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала	297
Муминов Шохжахон Суюнович , ассистент кафедры	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана	302
Муятдинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....	307
Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....	312
Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	316
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....	326
Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович, кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойбергенович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili	333
Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....	339
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....	345
Tosheva Ziroat Aliqul qizi	
Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития.....	355
Турсун Мухитович Ахмедов , и. ф. д., проф.; Гавхар Рустамовна Хидирова , докторант, и. ф. ф. д., доц.	
Влияние корпоративного управления в зеленой экономике	359
Уринов Бобур Насиллоевич , заведующий кафедрой	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	



Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich, PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich, PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilikini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna, kafedra dotsenti	
Особенности методики проведения аудита затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи, базовый докторант	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi, kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari.....	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich, mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylilik.....	420
Abrorxon Asatulloev Asatulloevich, falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна, аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmatov Farhodjon Kubayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov, mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullo Normatovich, t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
Daromadlarni qayta taqsimlashda "tashabbusli byudjet" tizimini qo'llashning zamonaviy modellari va ulardan samarali foydalanish yo'llari.....	464
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan.....	472
Tulkin Imomqulov, PhD Associate Professor	
O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari.....	478
Karimova Shirin Zoxid qizi, tayanch doktorant	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlili	483
Saodat Toshaliyeva Toxirova, PhD	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....	490
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович, DSc; Одилова Дилноза Барнаевна, PhD	
Tijorat banklari kreditlari hajimining barqaror o'sishini ta'minlash	497
J. Y. Isakov, i.f.d., prof.	



DAROMADLARNI QAYTA TAQSIMLASHDA “TASHABBUSLI BYUDJET” TIZIMINI QO‘LLASHNING ZAMONAVIY MODELLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada byudjet daromadlarini qayta taqsimlashda “Tashabbusli byudjet”, uni qo‘llashning xorij tajribalari va zamonaviy modellari, ulardan O‘zbekiston amaliyotida samarali foydalanish yo‘llari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: daromadlarni qayta taqsimlash, “Tashabbusli byudjet”, “Ochiq byudjet” modellari, ijtimoiy munosabatlar.

MODERN MODELS OF USE OF THE INITIATIVE BUDGET SYSTEM IN THE REDISTRIBUTION OF INCOME AND WAYS OF THEIR EFFECTIVE USE

Abstract: The article studied the tariffs given by economists to the concept of regulation of valuation activities. The necessity of regulation of valuation activities and the reasons for adapting the national standards of Yanoga valuation in the Republic of Uzbekistan to world practice are analyzed. The means of state regulation of valuation activities in Uzbekistan are analyzed in detail, directions for the further development of systems for regulating valuation activities are considered.

Key words: Evaluation activities, valuation, determining the cost, valuation standards, regulation, valuation organizations, qualification certificate.

СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ “ИНИЦИАТИВНЫЙ БЮДЖЕТ” В ПЕРЕРАСПРЕДЕЛЕНИИ ДОХОДОВ И ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация: This article studies the “Initiative budget”, foreign experience and modern models of its application in the redistribution of budget revenues, ways of their effective use in the practice of Uzbekistan.

Ключевые слова: income redistribution, models “Initiative budget”, “Open budget”, social relations.

KIRISH

O‘tgan asrning 90-yillarida aksariyat rivojlangan davlatlarda daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarida uy xo‘jaligi sektori, ya‘ni, fuqarolarning tashabbuslarini hisobga olgan holda byudjet mablag‘larining muayyan bir qismini sarflash bo‘yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlar qabul qilish hamda uning ijrosini kuzatish imkonini beruvchi tashabbusli (partisipator) byudjetlashtirish amaliyoti keng tarqaldi.

Tashabbusli byudjet – bu mahalliy hokimiyat organlarining fuqarolar tomonidan bildirilgan mahalliy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan va ushbu maqsadlar uchun byudjet mablag‘larini qayta taqsimlash jarayonidir.

Tadqiqot ishining maqsadi respublikada byudjet daromadlarini qayta taqsimlash samaradorligini oshirishda rivojlangan mamlakatlarning “Tashabbusli byudjetlashtirish” modellarini O‘zbekistonda samarali qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Partisipator byudjetlashtirish mexanizmi tarixi uzoq o‘tmishga borib taqalmasligi va bu loyiha yaqin 30 yillik tajribaga asoslanganligini e‘tiborga olgan holda fuqarolarning byudjet mablag‘lari sarflanishida tutgan o‘rni va uning dolzarbligi bo‘yicha nazariy va amaliy jihatlari xorijiy iqtisodchi olimlar N. Dias, G. Xachatryan, T. Vino-



gradova, A. Staxnyuk, V. Safaryan, D. Savinov, J. Sinki, M. Yunus, A. Joli, S. Fedorova, Y. Shumpeter, D. Geyl, F. Allen, J. Shanel-Reyno, E. Blua, A. I. Shpinov, A. Smit va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan¹.

O'zbekistonda bu masala B. Nurmuxamedova, O. G'aybullayev, A. Vaxobov, A. Islamkulov, A. Kuchkarov, A. Tuychiyev, B. Salimov, G. Fedyasheva, N. Karimov, T. Teshaboyev va boshqalarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan².

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qayta taqsimot jarayonlarini tashkil qilishda barcha rivojlangan mamlakatlarning erishgan yutuqlari tahlili har bir davlat o'ziga xos turlicha yondashuv, usul va modellarni qo'llaganliklarini ko'rsatdi. Bunda eng avvalo, har qanday islohotlar negizida fuqarolik jamiyatining manfaatlarini yuqori baholanganligi muhim omil bo'lgan.

Xalqaro tajriba qayta taqsimot jarayonlarini tashkil qilishning eng samarali usuli – bu taqsimot munosabatlarida “Tashabbusli byudjetlashtirish” yoki “Tashabbusli byudjetlashtirish” orqali erishiladi.

Xalqaro tajribaga nazar soladigan bo'lsak, tashabbusli byudjetlashtirish 1989-yilda birinchi marta Braziliyaning Porto-Alegri shahrida qo'llanilgan bo'lib, ma'muriyat fuqarolarga shahar byudjetining bir qismini qanday taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish imkoniyatini berdi. Bugungi kunda, o'ttiz yillik muvaffaqiyatli amaliyotdan so'ng, Porto-Alegri fuqarolari shahar byudjetining 20 foizini qayta taqsimlash jarayonida bevosita ishtirok etadilar³.

So'nggi o'n yilliklarda jahon mamlakatlarida qayta taqsimlash jarayonlarining samaradorligini oshirishda tashabbusli byudjetlashtirishdan foydalanishga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Jahon amaliyotida tashabbusli byudjetlashtirishning quyidagi modellaridan foydalanilmoqda:

1. Tashabbusli byudjetlashtirish (participatory budgeting), yoki “Portu-Alegri” modeli (Braziliya, tashabbusli byudjetlashtirish tarixidagi birinchi yirik tajriba, 1989-yil).
2. Ijtimoiy investitsiya fondlari (Social Investment Fund, SIF) orqali moliyaviy loyihalarni tanlov asosida taqsimlash modeli.
3. Mahalliy jamoalarning kuchi yordamida amalga oshiriladigan taraqqiyot loyihalarini (Community Driven Development, CDD) moliyalashtirish modeli. Ularda byudjet mablag'larini obyektiv mezonlar bo'yicha donorlar (JB, BMT, Community Led Local Development, CLLD boshqaruvi ostidagi mahalliy taraqqiyot loyihalari, Yevropa Ittifoqi agentliklari) tomonidan taqsimlanadi.
4. Aralash model.

Qayta taqsimlash jarayonlarida tashabbusli byudjet loyihalarini qo'llash usuli butun dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, bularning eng dastlabkisi Braziliya (Portu-Alegri)da amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika, Shimoliy Amerikada qo'llanila boshlandi. 2005-yilga kelib, u dunyoning 40 dan ortiq mamlakatiga tarqaldi.

Braziliya modeli. Braziliyada yigirma yillik diktatorlik rejimidan keyin (1964–1985) demokratik islohotlar boshlandi, natijada 1989-yil yangi konstitutsiya qabul qilindi. Bu vaqtga kelib Braziliya ijtimoiy tengsizlikning eng yuqori foiziga va daromad darajasi o'xshash mamlakatlar orasida qashshoqlikning eng yuqori foiziga ega edi.

O'sha yili mamlakatda Ishchilar partiyasi tuzildi, uning asosiy maqsadlaridan biri hokimiyatni demokratlashtirish edi. Mamlakatning bir necha shaharlarida, shu jumladan, 10 millionlik San-Pauluda o'tkazilgan shahar saylovlarida g'alaba qozongan Ishchilar partiyasi shahar byudjetlarini tayyorlashda fuqarolarning keng qatlamlarini jalb qilishga qaratilgan choralarni ko'rishni boshladi.

Ushbu shaharlardan biri Porto Allegri edi, unda kasaba uyushma harakatining an'analari va fuqarolarning jamoat hayotidagi faol ishtiroki juda kuchli edi.

1 Decide.Madrid.es Online Participatory Budgeting, <https://participedia.net/case/4365>, Dias, N. et al (2019). Participatory Budgeting World ATLAS 2019. Cascais: Oficina. <https://www.cascais.pt/anexo/participatory-budgetingworld-atlas-2019>, Хачатрян Г.Н., Шульга И.Е., Сухова А.С. Практики партисипаторного бюджетирования в больших городах, Виноградова Т.И. (2010). Программа “Прозрачный бюджет” в России. <http://centerstrategy.com/budget> Allen F., Gale D. Comparing Financial Sestems. – Cambridge, Mass: MIT Press, 2000. – 519 p.; Chanel-Reynaud G., Bloy E. LaBanqueetlerisque PME. – PressesUniversitaires de Lyon. Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов.

2 Nurmuxamedova B. I. Davlat byudjeti. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. –630 b.; Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2017; G'aybullaev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: Baktria press, 2016.

3 Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. <https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind/>



Shuni alohida qayd etish kerakki, hozirgi kunda dunyodagi eng rivojlangan va ommabop byudjet modeli Porto Allegri modeli bo'lib qolmoqda. Porto Allegri tajribasini hisobga olgan holda, fuqarolar ishtirokining uchta tashkiliy darajasini quyidagi 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval: Porto Allegri shahridagi tashabbusli byudjetlashtirishni tashkil qilish darajasi⁴

Nomlanishi	Darajasi	Ishtirokchilar tarkibi	Vazifalari
Assambleya	Kichik tuman (mikrorayon)	Barcha aholi	Muhim munozara, delegatsiyani tanlash, monitoring natijalari
Forum	Okrug (tuman) Shahar (mavzuli forum)	Delegatlar	Ustuvorliklarni tanlash, shahar muassasalari bilan muzokaralar, loyihani amalga oshirish monitoringi
Maslahat	Shahar	Delegatlar, ma'muriyat vakillari	Joriy va kelgusi yilda investitsiyalarni taqsimlash qoidalarini aniqlash, byudjet loyihasi kelishish va merga topshirish

Porto Allegrida tashabbusli byudjetlashtirish sikli 11 oy davom etadi va mart oyida tayyorgarlik uchrashuvlari bilan boshlanadi, aprel-iyul oylarida ko'plab assambleyalar va fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi, iyul-sentyabr oylarida ehtiyojlar va byudjet tuzilishi tahlil qilinadi. Sentyabr-oktyabr oylarida byudjet tuzilishi va investitsiya rejasi bo'yicha takliflar kiritiladi. Noyabr oyida yakuniy munozaralar, dekabr-yanvarda debatlar va ovoz berish jarayoni bo'lib o'tadi.

AQSh modeli. AQShda tashabbusli byudjetlashtirishning byudjet ochiqligi siyosatiga to'liq integratsiyalashuvi 2013–2015-yillarda ro'y berdi. (Tajriba 2009-yilda Chikagoda, 2011-yilda Nyu-Yorkda boshlangan edi).

Nyu-York shahridagi fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (PBNYC) jamoalarga kapitalni byudjetlashtirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatish qobiliyatini berishda muhim rol o'ynaydi. Bu Nyu-Yorkliklarni fikr almashish, takliflar ishlab chiqish va jamoat loyihalari bo'yicha ovoz berish orqali fuqarolik jarayoniga jalb qilish va qarorlar qabul qilishga undaydi. 2011-yildan beri fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (PBNYC) so'nggi bir necha yil ichida jamoalarni mustahkamladi va shaharni yanada kuchliroq qildi.

2011-yilda Nyu-York shahar kengashining to'rt nafar a'zosi – Bred Lander, Melissa Mark-Viverito, Yerik Ulrich va Jumaane D. Uilyams – o'z tumanlari aholisiga o'zlarining kapital mablag'larining bir qismini ajratishga ruxsat berish uchun fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (tashabbusli byudjetlashtirish) jarayonini boshladilar. Yillar davomida bu jarayon Kengash a'zolarining ko'pchiligini o'z ichiga olgan holda o'sib bordi, bu esa jamiyatlarga har yili soliq to'lovchiga 35 million dollardan ortiq pul mablag'larini taqsimlash bo'yicha qaror qabul qilish imkonini berdi.

2019-yilda Kengashning 33 nafar a'zosi Nyu-York shahrida fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (PBNYC)da ishtirok etib, aholidan kapitalni moliyalashtirish uchun kamida 35 million dollar sarflashni so'rashdi. Jamiyat ovoz berish byulletenini ishlab chiqish uchun bir qator bosqichlardan so'ng, to'qqiz kunlik ovoz berish haftaligida eng ko'p ovoz olgan loyihalar shahar moliya yili byudjetida qabul qilindi.

Nyu-York shahridagi fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (PBNYC) aholiga foyda keltiradigan, kamida 50 000 dollar turadigan va 5 yil xizmat qiladigan jismoniy infratuzilma loyihalarini moliyalashtiradi. Maktablar, bog'lar, kutubxonalar, uy-joylar, ko'chalar va boshqa jamoat joylarini obodonlashtirish ushbu jarayon orqali moliyalashtiriladi.

G'oyalar to'plami va ko'ngillilarni yollash avgust-oktyabr oylarida jamiyat yig'ilishlari orqali aholi g'oyalarini o'rtaga tashlash va joriy sikl uchun Byudjet delegatlarini shakllantiradi.

Taklifni ishlab chiqish esa oktyabr-yanvar oylarida Byudjet delegatlari shahar idoralari va xodimlarining yordami bilan g'oyalarni to'liq takliflarga aylantiradilar. Delegatlar takliflarni qisqartiradi va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan loyihalarni tanlaydi.

Ovoz berish haftaligi mart-aprel oylarida bo'lib takliflar aniqlangandan so'ng, Byudjet delegatlari va rezidentlar ovoz berishadi va 9 kunlik jamoatchilik ovoziga tayyorgarlik ko'rishadi.

Baholash va rejalashtirish may-iyun oylarida amalga oshirilib, unda g'olib bo'lgan loyihalar Nyu-York shahrining kelgusi moliya yili byudjetiga kiritiladi. Xodimlar va manfaatdor tomonlar jarayonni baholaydilar va g'olib bo'lgan loyihalarni agentliklar tomonidan amalga oshirilishini nazorat qiladilar⁵.

2013-yil 6-dekabrda AQShda ikkinchi Ochiq Hukumat Milliy Harakat rejasi ishlab chiqildi va unda 23 ta yangi yoki kengaytirilgan ochiq hukumat majburiyatlari e'lon qilindi, bu esa, ushbu sohada sa'y-harakatlarni yanada rivojlantirdi. Bunga fuqarolarning ayrim mahalliy davlat xarajatlari loyihalarini aniqlash, muhokama

4 Decide.Madrid.es Online Participatory Budgeting, <https://participedia.net/case/4365>

5 Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. <https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind/>



qilish va ustuvorliklarini belgilashda rol o'ynashga yordam beradigan vosita sifatida jamoatchilik ishtirokidagi byudjetlashtirishni targ'ib qilish va fuqarolarga soliq to'lovchi mablag'lari o'z jamiyatlarida qanday sarflanishi haqida ovoz berish majburiyati kiradi. Ushbu majburiyat quyidagilardan iborat:

1. Jamiyat xarajatlari bo'yicha qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirish.
2. Jamoalar loyihalarni amalga oshirishda foydalanish mumkin bo'lgan vositalar va ilg'or tajribalarni yaratish.
3. Amerikaning boshqa hamjamiyatlari ishtirokida byudjetlashtirish mahalliy investitsiyalarning ustuvorliklarini aniqlashga yordam berish uchun ishlatilishi mumkinligi haqida xabardorlikni oshirish.
4. Hamjamiyatlarni birgalikda byudjetlashtirish va uning afzalliklari haqida o'qitishga yordam berish⁶.

Kanada modeli. Kanadaning "Shahar, tuman hokimligi uchrashuvlari" (Town-hall meetings) deb nomlanuvchi tajribasi Kanada Parlamentining moliya qo'mitasi tomonidan mamlakatning turli hududlarida fuqarolarni tinglash asnosida o'tkaziladi va bu jarayon Moliya vaziri Parlamentga byudjet siyosatining muhim mavzularini tanishtirishidan avval bo'lib o'tadi.

Kanadada XX asrlarda ham viloyat, tuman va shaharlarda mamlakat siyosatining dolzarb masalalarini muhokama qilish tadbirlari bo'lgan. "Shahar, tuman hokimligi uchrashuvlari" (Town-hall meetings) ham shunday tadbirlardan biri hisoblanadi va bu tadbirda mamlakat byudjet siyosati to'g'risida xalq bilan muhokama o'tkaziladi hamda bunday tadbirlar Kanadada fuqarolarning byudjet jarayoniga qonun chiqaruvchi organ, ya'ni Parlament tomonidan jalb qilinishi hisoblanadi.

Kanada davlati Parlamentining moliya qo'mitasi byudjet siyosati bo'yicha jamoatchilik muhokamasini Moliya vaziri Parlamentning moliya qo'mitasiga umumiy byudjet siyosati dasturlarini tanishtirishidan oldin boshlaydi. Qo'mita Kanada bo'ylab 10 ta turli joylarda (shahar yoki tumanlarda) umumiy hisobda 20 ta jamoatchilik muhokamasini o'tkazadi. Ushbu muhokamalarda mamlakatda istiqomat qiladigan barcha fuqarolar ishtirok etishlari mumkin. Muhokamalardan so'ng, Parlamentning moliya qo'mitasi bir qator aniq masalalar bo'yicha takliflarni Moliya vazirligiga taqdim etadi. Shundan keyin, Moliya vaziri byudjetni fevral oyi oxirida tanishtiradi⁷.

Janubiy Koreya modeli. Koreya Respublikasining "Jamoatchilik bilan ochiq muloqot" (Open discussions for the public) (keyingi o'rinlarda – ODP) deb nomlangan tajribasi Koreya Respublikasining davlat byudjetini tayyorlash bosqichida qo'llaniladi va bu tajribani byudjet jarayoniga tadbiq qilish orqali byudjet jarayonida jamoatchilikning faol ishtiroki ta'minlanadi. XX asrning oxirlaridan boshlab Koreya Respublikasida demokratik jarayonlar jadallashib, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi shaffoflikka bo'lgan talablari oshdi. Davlatning olib borayotgan siyosati va byudjetdan mablag' ajratilishini kuzatishda jamoatchilik va nodavlat notijorat tashkilotlarining roli ortib bordi va natijada hukumat ularning fikrini jiddiy qabul qila boshladi.

Davlat byudjeti sohasida katta o'zgarishlar yuz berdi, xususan, o'rta muddatli byudjetlashtirish (MTEF), natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish shular jumlasidandir.

O'rta muddatli byudjetlashtirishni yo'lga qo'yish bilan ko'p yillik xarajatlarning cheklangan miqdorlari belgilana boshlandi, ammo, bunday miqdorlarni o'rnatish Moliya vazirligiga va buni ijro etuvchi organlarga qiyinchiliklar tug'dira boshladi hamda buning yechimi sifatida hukumat fuqarolarning byudjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlash orqali real xarajatlarning cheklangan miqdorlarini o'rnatishga erishishni maqsad qilib qo'ydi. Fuqarolarning byudjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlashda foydalaniladigan mexanizmlardan biri bu ODP jarayoni hisoblanib, unda Koreya Respublikasida byudjet jarayonining birinchi bosqichi, ya'ni byudjetni tayyorlash jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayon aholining turmush farovonligiga ta'sir ko'rsatadigan va yirik mablag' talab etiladigan dasturlarni bevosita aholining o'zi bilan muhokama qilish imkoniyatini yaratish uchun qo'llanilib kelinadi.

Koreya Respublikasida byudjetni tayyorlashdagi jamoatchilikning ishtiroki (ODP jarayoni), mamlakatda yillik va o'rta muddatli byudjetni tayyorlash jarayoni yanvar oyidan boshlab vazirlik va byudjet idoralarining o'zlari uchun muhim ustuvor dasturlarni belgilash bilan boshlanadi. Tarmoq vazirliklari byudjet so'rovlarini tayyorlagandan so'ng, byudjet byurosi manfaatdor tomonlar, byudjet bo'yicha mutaxassislar, akademik olimlar va xususiy sektor a'zolari bilan maslahatlashib, vazirlik va idoralarga joriy hamda kapital xarajatlariga kelgusi yil uchun ajratilishi rejalashtirilgan mablag'larning cheklangan miqdorlarini belgilaydi. Mazkur jarayonda ba'zi bir dasturlarni amalga oshirishda jamoatchilikning fikri muhim sanalganligi bois, ODP qo'llaniladi. Odatda ODP jarayonida muhokama qilinadigan dasturlar bu yirik mablag' talab qiladigan va fuqarolarning turmush farovonligiga ta'sir ko'rsatadigan loyihalar hisoblanadi.

ODP jarayonida 6 kun mobaynida Koreya Respublikasining ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, infratuzilma va atrof muhit muhofazasi kabi 12 ta sektori ishtirok etadi va har bir sektor dasturlari borasidagi bahs va munozaralar 90 daqiqa davom etadi. Har bir sektor muhokamasiga (tinglash uchun) davlat moliya sektori

6 Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. <https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind>

7 Dias, N. et al (2019). Participatory Budgeting World ATLAS 2019. Cascais: Oficina. <https://www.cascais.pt/anexo/participatory-budgeting-world-atlas-2019>



mutaxassislari, tarmoq vazirliklari, byudjet idoralari, byudjet ijrosi subyektlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining yuqori darajadagi hukumat amaldorlaridan iborat hay'ati chaqiriladi va har bir sektor mavzusiga qiziquvchi har qanday fuqaro ODP jarayonida ishtirok etish imkoniyatiga ega. ODP tadbirining kun tartibi va manzili to'g'risidagi ma'lumotlar matbuot orqali jamoatchilik e'tiboriga oldindan taqdim etiladi. Bu tadbir o'tkaziladigan bino 300 ga yaqin odamni qabul qilishi mumkin va qolgan hohlovchilar onlayn tarzda OAV orqali kuzatishlari mumkin⁸.

O'zbekiston Respublikasida ham ODP jarayoni boshqacharoq tartibda amalga oshirilib kelinmoqda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 97-moddasiga muvofiq Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga yuborilishidan oldin majburiy ravishda "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portal" orqali jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi va "Fuqarolar uchun byudjet" axborot portalida jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilinadi.

ODPni O'zbekistonda qo'llash mamlakatning byudjet shaffofligi va qayta taqsimot jarayonlarida jamoatchilikning bevosita ishtirok etishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonning byudjet ochiqqligini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarning samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Koreya Respublikasining "Byudjet mablag'laridan noto'g'ri foydalanganlik haqida xabar berish markazi" (Budget Waste Report Centre) "Call-markazi" tajribasi mavjud bo'lib, bunda maxsus "call-markazi" jamoatchilikni byudjet jarayoniga jalb qilishning yana bir ilg'or tajribasi hisoblanadi va bu orqali hushyor turgan jamoatchilikni osongina byudjet jarayonlariga jalb qilish mumkin. Markazga byudjet jarayonida byudjet mablag'larining noo'rin sarflanishi yoki talon-taroj qilinishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolar murojaat qilishlari mumkin bo'ladi. Shuningdek, fuqarolar bu markazga byudjet mablag'larini tejab ishlatishning kreativ usullarini ham taklif qilishlari mumkin. Bu markazning xodimlari byudjetni shakllantirish va uni amalga oshirishda tajribaga ega bo'lgan byudjet idoralaridan nafaqaga chiqqan fuqarolardan tashkil topgan. Ular qo'ng'iroqlarga samarali javob berish va byudjet mablag'larining sarflanishi bo'yicha xabar berilganda tegishli bo'limlarga xabarlarini yuborish va eng muhimi, qo'ng'iroq qiluvchilarni to'g'ri yo'nalishda boshqarish uchun yetarli bilimga egadir⁹.

Hindiston modeli. Hindistonning fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirishni rivojlantirish tajribasi butun dunyoga ma'lum. 1996 yilda Hindistonning Kerala shtatida (Kerala) mahalliy muammolarni hal qilishda fuqarolarning ishtiroki bo'yicha eng yirik loyihalardan biri ishga tushirildi. Ehtimol, dunyoning boshqa hech bir joyida tashabbusli byudjetlashtirish bunday ommaviy safarbarlik kanaliga aylanmagan. Rejalarga mintaqaning 31 million aholisining 10% dan ortig'ini jalb qilish ko'zda tutilgan, ularning kamida uchdan bir qismi ayollardir. Fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish aholini siklik jarayonga jalb qildi, barcha bosqichlarda 373 ta davlat instruktorlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Keraladagi tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni besh bosqichni o'z ichiga oladi:

- bir qator mahalliy yig'ilishlar;
- ma'lumot to'plash va mahalliy hukumatlarga jamoaviy xatlar yozish;
- rivojlanish seminarlarida maxsus komissiya tomonidan loyiha takliflarini shakllantirish;
- ularni mintaqaviy rejalashtirish qo'mitalari tomonidan tasdiqlash;

Fuqarolar ham ishtirok etadigan loyihalarni amalga oshirish, monitoring qilish va baholash.

Kerala tajribasining moslashuvchanligi unga davlat hokimiyatining siyosiy rangini bir necha bor o'zgar-tirgan o'zgarishlardan omon qolishga imkon berdi. Qanday bo'lmasin, tajriba o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish va chaqaloqlar o'limi darajasini pasaytirish kabi jarayonlarga ijobiy hissa qo'shdi. U olimlar va global-lashuvga qarshi harakat tomonidan xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi. Bu hodisa 2004-yilda Mumbayda bo'lib o'tgan to'rtinchi Jahon ijtimoiy forumida keng muhokama qilindi. Hindiston Konstitutsiyaga 74 marta tuzatish kiritildi va maxsus qonun (Nagar Raj Bill namunasi) qabul qilindi, unga ko'ra shtat hukumatlari va shahar ma'muriyatlari mahalliy fuqarolardan iborat maslahatchi jamoat qo'mitalari tuzish hamda ular bilan kelishilgan holda mahalliy byudjetlarni tayyorlashni talab qiladi. Ushbu tuzatishning qabul qilinishi bilan davlat organlari xodimlari mahalliy byudjetlarni jamoatchilik qo'mitalari bilan kelishilgan holda tayyorlashga kirishdilar. Hindistonning Pune shahrida proaktiv byudjetlashtirish birinchi marta yagona munitsipalitet doirasida joriy etildi. Pune aholisi 3,5 million kishidan oshadi. Ishga tushirish 2005-yilda bo'lib o'tgan, haqiqiy ish 2006–2007-yillarda boshlangan. Tajriba fuqarolar va shahar nodavlat tashkilotlari, jumladan Janwani, NSCC, C.E.E, Nagrik Chetna Manch orasida o'zaro munosabatlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Muayyan bosqichda loyiha to'xtab qoldi va NNT hamda fuqarolarning qat'iyati, sa'y-harakatlari tufayli uni davom ettirish mumkin bo'ldi. Pul har bir prabhag uchun (ikkita saylov uchastkasi hududini qamrab olgan) 5 million rupiy (75 400 AQSh dollari) miqdorida ajratilgan, har bir loyiha uchun maksimal chegarasi 500 000 rupiy (7 540 dollar)dir (2-jadval).

8 Jahon bankining rasmiy veb sayti ma'lumotlari. <http://documents1.worldbank.org/curated/en/178151523259318780/pdf/125047-BRI-KR-Budget-process-GPSM-3-PUBLIC.pdf>

9 Jahon bankining rasmiy veb sayti ma'lumotlari. <http://documents1.worldbank.org/curated/en/178151523259318780/pdf/125047-BRI-KR-Budget-process-GPSM-3-PUBLIC.pdf>



2-jadval: Hindistonning Kerala shahrida fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirishni amalga oshirish uchun vaqt rejasi

Ko'rsatkich	Qiymati	Davri
Davlat byudjeti	748460 INR milliard 9648,211 milliard dollar	April 2022
Hukumat xarajatlari	4623 milliard INR 59,594 milliard AQSh dollari	1/22 chorak
Davlat daromadlari	199983 INR milliard 2577,931 milliard dollar	April 2022
Davlat byudjeti YaIM ga nisbatan	9,4%	2020 yil
YaIMga nisbatan davlat xarajatlari	17,6%	2020

Yevropa mamlakatlari modeli. Yevropada tashabbusli byudjetlashtirish 2001-yilda Italiya, Ispaniya va Fransiya mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan tatbiq etildi. Lissabonda shahar miqyosida elektron ovoz berish asosida tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmi tatbiq etilgan birinchi poytaxt bo'ldi. 2019-yilda esa, barqaror taraqqiyotni moliyalashtirish uchun "yashil" tashabbusli byudjetlashtirish tatbiq qilindi (3-jadval).

Xalqaro ekspertlar hamjamiyati uchun mamlakatning eng qiziq xususiyati shundaki, tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarga milliy byudjetni qayta taqsimlashning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida bevosita ishtirok etish imkoniyatini beradi. 2016-yil oxirida Milliy dastur e'lon qilindi. U beshta mavzuni kamrab olgan: fan, madaniyat, ta'lim, kattalar uchun uzluksiz ta'lim dasturlari va qishloq xo'jaligi.

3-jadval: Yevropa mamlakatlarida tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotining rivojlanishi¹⁰

Yillar	Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti jarayoni muddatlari
1994	Italiyaning Grottamar shahrida tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti boshlangan.
2001	Fransiya va Ispaniyaning munitsipalitetlarida tashabbusli byudjetlashtirish joriy etilgan.
2002	Fransiya mahalliy demokratiya to'g'risidagi qonunni qabul qilgan.
2007	Stavropol o'lkasida Rossiyada mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash dasturi boshlangan.
2008	Lissabonda tashabbusli byudjetlashtirish ishga tushirilgan.
2009	Polsha Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotlarini qo'llash uchun "Qishloq fondlari to'g'risida"gi qonunni qabul qilgan.
2014	Parij bugungi kunda Yevropada tashabbusli byudjetlashtirishning eng yirik amaliyotini boshlagan
2016	Portugaliyada dunyoda birinchi milliy darajadagi tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti boshlangan.

Portugaliya mahalliy darajada 118 ta tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini, shuningdek, dunyoning birinchi milliy tashabbusli byudjetlashtirish dasturini amalga oshirgan.

Portugaliyaliklar milliy yoki mintaqaviy miqyosdagi bitta loyicha uchun onlayn yoki SMS orqali ovoz berishlari mumkin. Har bir ma'muriy okrugda vertikal va gorizontol hokimiyat tizimi mavjud bo'lib, unda mahalliy boshqaruvning uch darajasi mavjud. Eng quyi daraja qariyb 4000 ta okrugni o'z ichiga oladi. Har bir okrugda okrug assambleyasi faoliyat ko'rsatadi, u ijroiya organi - juntuni tayinlaydi. Munitsipalitetlar mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning ikkinchi (asosiy) darajasi hisoblanadi, ular ham qishloq, ham shahar hududlarini o'z ichiga oladi. Har bir munitsipalitetda munitsipal assambleya faoliyat ko'rsatib, ular hokimiyatning ijroiya organi hisoblanadi.

Portugaliyada 2002–2006-yillarda fuqarolar ishtirokidagi byudjetning ilk shakllari maslahat xususiyatiga ega edi. 2007–2008-yillarda Sesimbra va Lissabon munitsipalitetlari munitsipal byudjetning bir qismini taqsimlash uchun ommaviy ovoz berishni joriy etdi. Faqat 2012-yilda tashabbusli byudjetlashtirish to'liq shaklda paydo bo'ldi. Bu davrda og'ir moliyaviy inqiroz ham yuz berdi, xalqaro kreditorlar ijtimoiy xarajatlarning bir qismi hisobidan ichki qarzni kamaytirishni talab qildi. Bu Portugaliya jamiyatining institutlar va siyosiy hokimiyatga bo'lgan ishonchi kamayishiga olib keldi. Bu esa, aholining yanada faol ishtirokini ta'minlash va ular bilan muloqot qilish mexanizmlarini yaratishga bo'lgan mahalliy hokimiyat organlari ehtiyojini oshirdi. Hozirda Portugaliya tashabbusli byudjetlashtirish nafaqat mahalliy o'zini o'zi boshqarish darajasida, balki milliy darajada ham amal qiladigan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Portugaliyada so'nggi o'n besh yil ichida tashabbusli byudjetlashtirish keng miqyosda rivojlandi. 2022-yil holatiga ko'ra, mamlakatda mahalliy darajada (munitsipalitetlarda) tashkil qilingan tashabbusli byudjetlashtirishlar soni bo'yicha dunyo miqyosida rekord o'rnatdi. 2017-yilga kelib butun mamlakat miqyosidagi loyihalarni fuqarolarning ishtiroki asosida aniqlash, ya'ni "Fuqarolar ishtirokidagi milliy byudjet" (NPB)ni dunyoda birinchi bo'lib qo'llagan mamlakatlardan biri sanaladi.

¹⁰ "Hope for democrace" (30 years of Participatory Budgeting Worldwide)



Portugaliyada 2017-yildan boshlab mahalliy tashabbusli byudjetlashtirishdan tashqari alohida tarzda umumiy davlat byudjetidan ta'lim, fan, madaniyat, qishloq xo'jaligi, adliya va davlat boshqaruvi sohalarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun mablag'larning ma'lum bir qismini fuqarolar ishtirokida sarflanadigan NPB tizimi yo'lga qo'yilgan. NPB tizimi quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga asoslangan:

1. Portugaliya Konstitutsiyasiga muvofiq, fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish yordamida demokratiya sifatini mustahkamlash;
2. Fuqarolarning byudjetlashtirish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash orqali ularni qaror qabul qilishga jalb qilish;
3. Mamlakatning turli hududlaridagi fuqarolarni bog'laydigan loyihalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasida ham mahalliy tashabbusli byudjetlashtirish (Byudjet mablag'larini fuqarolar tashabbusi asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish mexanizmi) tizimi yo'lga qo'yilgan va bu yo'nalish yildan-yilga jadallik bilan rivojlantirilmoqda.

Bizning fikrimizcha, respublikada qayta taqsimlash jarayonlarida NPB tizimi joriy etilsa, mamlakatning ta'lim, fan, madaniyat, qishloq xo'jaligi, adliya va davlat boshqaruvi sohalarini rivojlantirish va takomillashtirishda ijobiy natijalar berishi mumkin. Tashabbusli byudjetlashtirishning mazkur yo'nalishi O'zbekistonning OBDagi o'rniga ham juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaymiz.

Buyuk Britaniyada "Fuqarolar paneli" (Citizens' Panel) – jamoat afzalliklari va fikrlarini baholash uchun muntazam ravishda foydalanib turiladigan, demografik jihatdan vakillik qiluvchi katta guruhdir.

"Fuqarolar paneli" byudjet jarayonida jamoatchilikning faol ishtirok etishi mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Onlayn tarzda o'tkazilganda ba'zida u elektron panel (e-Panel) sifatida ham tanilgan. "Fuqarolar paneli"ga "O'z-o'zini boshqarish bilan shug'ullanish va fuqarolik fazilatlarini shakllantirish imkoniyati", deb ta'rif berilgan. Xalqaro amaliyotda jamoatchilik kuzatuvlari bilan bir qatorda yanada samarali bo'lgan va kelajakda kuzatuv mexanizmining o'rnini bosishi mumkin bo'lgan "Fuqarolar paneli" (Citizens' Panel) bilan birgalikda, boshqa elektron e'lon taxtalari (Electronic Bulletin Boards), ochiq eshiklar kunlari (Open House), seminarlar (Citizen Workshop), Charrett usuli¹¹ (Design Charrette), aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar va fuqarolik forumlari (Civil forum), fokus guruhlar bilan ishlash (Focus group) amaliyotlaridan ham keng foydalanilmoqda.

Buyuk Britaniyada Fuqarolar paneli mahalliy aholining vakili, maslahat organi bo'lishga intiladi. Ular, odatda, mahalliy ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va muayyan masalalar bo'yicha xizmat foydalanuvchilari, foydalanuvchi bo'lmaganlar bilan maslahatlashish uchun qonuniy idoralar, xususan mahalliy hokimiyat va ularning sheriklari tomonidan qo'llaniladi. So'nggi paytlarda ushbu uslubni mahalliy darajada an'anaviy makondan tashqariga chiqarib, xalqaro darajada Yevropa Fuqarolari Panelini tuzishga urinishlar bo'ldi.

Ishtirokchilar odatda saylovchilar ro'yxati yoki pochta indeksi manzil faylini tasodifiy tanlab olish orqali jalb qilinadi. Pochta orqali jalb qilish keng qamrovli va nisbatan arzon narxga ega bo'lganligi sababli keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi. Biroq, ijtimoiy jihatdan chetda qolgan va erishish qiyin bo'lgan guruhlar bir qator boshqa usullar bilan jalb qilinadi.

Fuqarolar ishtirok etishga rozilik berganlaridan so'ng, ular tadqiqot (rejalashtirilgan tadqiqot dasturi) va maslahatlashuv dasturiga taklif qilinadi. Bu odatda doimiy so'rovnomalarni va kerak bo'lganda seminarlar hamda yanada chuqur tadqiqot vositalarini o'z ichiga oladi. Barcha Fuqarolar paneli a'zolari barcha tadbirlarda ishtirok etishga taklif qilinmaydi. Shu sababli, ishga qabul qilish bosqichida har bir Panel a'zosidan nimani kutish kerakligi va ular a'zoligining aloqa turi to'g'risida aniqlik kiritish muhimdir.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda qayta taqsimot jarayonlarida Buyuk Britaniya tajribasida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan "Fuqarolar paneli" (Citizens' Panel) tizimini "Ochiq byudjet" portaliga muqobil ravishda joriy qilish ijobiy samara beradi. Byudjet jarayonida amalga oshirilayotgan so'rovlar yoki boshqa tadqiqotlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishga imkon beruvchi ushbu "Fuqarolar paneli" fuqarolarning ehtiyojlarini aniqlab, muammolarni bartaraf qilishga yordam beradi. Panel ishtirokchilarining qoniqish darajasi doimiy ravishda kuzatib borilib, agar kamchiliklar mavjudligi aniqlansa, ular bartaraf qilinadi. Fuqarolar panelini O'zbekistonda qo'llash byudjet ochiqligi va shaffofligiga, fuqarolarning byudjet jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Milanda tashabbusli byudjetlashtirishning Italiyada bugungi kundagi eng yirik amaliyoti amalga oshirilmoqda¹². Milanda tashabbusli byudjetlashtirish 2017-yilda shahar kengashi tomonidan tasdiqlangan "Ishtirok etish pakti" (Patto di Partecipazione)¹³ tomonidan tartibga solinmoqda.

11 **Charret usuli** – bu rejalashtirish va amalga oshirish rejasini tuzish uchun fanlararo jamoani, odatda, rejalashtiruvchilar, fuqarolar, shahar ma'murlari, me'morlar, landshaft arxitektorlari, transport muhandislari va boshqa manfaatdor tomonlarni yig'ib, rejalashtirish jarayonlarini birlashtiruvchi bir usuldir.

12 Milan – Participatory Budgeting. Collaborative Cities

13 <https://bilanciopartecipativo.comune.milano.it/content/view/3>



Milandagi birinchi tashabbusli byudjetlashtirish loyihasi 2015-yilda ishga tushirilgan va Milanning barcha to'qqizta munitsipalitetida (hududida) muvaffaqiyatli yakunlandi. Unda milanliklarning qariyb 3 foizi ishtirok etdi¹⁴.

Loyiha takliflari quyidagi toifalar bo'yicha bo'linadi: atrof muhit, madaniyat, iqtisodiyot, oilalar va yoshlar, ijtimoiy integratsiya va teng imkoniyatlar, shahar hududlarini tiklash va bezash, maktab, xavfsizlik, yo'llar va transport, texnologiyalar va innovatsiyalar, sport va bo'sh vaqtni unumli o'tkazish.

Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini moliyalashtirish uchun yiliga qariyb 4,5 mln. yevro ajratiladi. Mablag'lar shaharning barcha to'qqiz tumani o'rtasida teng taqsimlangan, ya'ni har bir tumanda umumiy qiymati 500 ming yevrogacha bo'lgan bir yoki ikkita loyiha moliyalashtirilishi mumkin¹⁵.

Milanning har bir to'qqizta tumanida eng ko'p ovoz olgan (shu jumladan bonuslar olgan) bitta loyiha, agar ularning umumiy byudjeti belgilangan cheklovdan 500 ming yevroga kamroq bo'lsa, ko'pi bilan 2 ta loyiha tanlanadi. 2018–2019-yillarda g'olib bo'lgan 12 ta loyihadan 8 tasi shahar hududlarini rivojlantirishga ajratilgan.

Tashabbusli byudjetlashtirish sohasida dunyodagi eng katta tajriba Xitoyning Chendu shahrida amalga oshirildi. Bunda infratuzilmalar, shuningdek, qishloq xo'jaligi, biznes va madaniyatni rivojlantirish bo'yicha 50 mingta loyiha qabul qilindi.

Chendu (XXR) provintsiyasining fuqarolarni qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga jalb qilish borasidagi tajribasi diqqatga sazovor. Fuqarolar birgalikda jamoat fondlarini tashkil etish va mintaqaviy, davlat investitsion korporatsiyalaridan turli kreditlar olish to'g'risidagi qarorlarni birgalikda qabul qiladilar. XXRda qishloqlarda taraqqiy etgan infratuzilmani shakllantirish uchun tashabbusli byudjetlashtirish metodologiyasining boshqa hech qaysi mamlakatda o'xshashi yo'q modeli shakllantirilgan.

Tashabbusli byudjetlashtirishda fuqarolar loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, pul ko'rinishda bo'lmagan ulush (texnika, joy va materiallarni taqdim qilish), arizalarni rasmiylashtirish, qurilish, obyektlarni saqlashda loyiha tashabbuskorlariga yordam berish orqali ijtimoiy mas'ul biznes ishtiroki ham ko'zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>
2. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер.с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999.
3. Мэнкью Г. Принципы экономикс. – СПб.: Питер, 2003.
4. Nurmuxamedova B.I. Davlat byudjeti. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 630 b.
5. Программа “Прозрачный бюджет” в России. <http://centerstrategy.com/budget>
6. Фридман М. Если бы деньги заговорили. Пер. с англ. – М.: Дело, 1999.
7. Хачатрян Г. Н., Шульга И. Е., Сухова А. С. Практики партисипаторного бюджетирования в больших городах, Виноградова Т. И. (2010).
8. G'aybullaev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: Baktria press, 2016.
9. Allen, F., Gale, D. (2000). Comparing Financial Sestems. – Cambridge, Mass: MIT Press. – 519 p.
10. Ronald Hamowy The Encyclopedia of Libertarianism // The London. 1937 // <https://books.google.co.uz/books?id=yx-NgXs3TkJYC&printsec=front-cover&hl=ru#v=onepage&q&f=false>
11. Bigsten, A., Levin, J. Growth. (November 2001). Income Distribution, and Poverty: A Review // WIDER Discussion Paper 129. World Institute for Development Economics research (WIDER), Helsinki.
12. Decide. Madrid.es Online Participatory Budgeting, <https://participedia.net/case/4365>, Dias, N. et al (2019).
13. Participatory Budgeting World ATLAS 2019. Cascais: Oficina. <https://www.cascais.pt/anexo/participatory-budgeting-world-atlas-2019>.
14. Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. <https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind/>
15. Chanel-Reynaud, G., Bloy, E. La Banqueetlerisque PME. – PressesUniversitaires de Lyon.
16. Nurmuxamedova B. I. Davlat byudjeti. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 630 b.

14 Хачатрян Г.Н., Шульга И.Е., Сухова А.С. Практики ташаббуслиного бюджетирования в больших городах / Под общей ред. Шульги И.Е. – М.: “Алекс”, 2020 – 106 с.

15 Виноградова Т.И. (2010). Программа “Прозрачный бюджет” в России. <http://center-strategy.com/budget>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

